



Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal

Jurnalning bosh sahifasi: <https://universaljurnal.uz>

TRIGONELLA FOENUM-GRAECUM DORIVOR O'SIMLIGINING O'SIB RIVOJLANISHIGA RIZOSFERA MIKROORGANIZMINING TA'SIRINI BAHOLASH

¹Azatov Farrux Rashid ugli., ¹Shukurov Otabek Jo'rabe o'g'li
²Xo`jamshukurov Nortoji Abdusalikovich., ²Otajonov Asadbek Shonazarovich

¹*O'simliklar genetik resurslari ilmiy-tadqiqot instituti*

²*Toshkent kimyo-texnologiya instituti*

Maqola haqida ma'lumot
Qabul qilingan: 5.05.2024
Qayta qabul : 24.05.2024
Saytda mavjud : 24.05.2024

Muallif (lar)
Azatov F.R.
*Xo`jamshukurov N.A.
Otajonov A.Sh.
Shukurov O.J.

Muallif bilan aloqa
<https://orcid.org/0000-0001-7807-4737>
nkhujamshukurov@mail.ru

© Azatov F.R va boshqalar

UNIVERSAL xalqaro ilmiy jurnal

Ochiq ma'lumotlar:
<https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal>

Maxfiylik bayonoti
Materialni istalgan vosita yoki formatda nusxalash va qayta tarqatish hamda maqoladan to'g'ri iqtibos keltirish va litsenziyasini ko'rsatish sharti bilan istalgan maqsadda foydalanish mumkin.

Annotatsiya: Ushbu maqolada *Trigonella foenum-graecum* dorivor o'simligi turli xil ozuqa muhitlarida o'sish sharoitlari o'rganish natijalari keltilgan. Tibbiyot tarmoqlari uchun kelajakda tabiiy dori vositalari tayyorlashda muhim xomashyo manbasi bo`lib xizmat qiladi. Respubliamizning turli hududlarida yetishtirish imkoniyati mavjud bo`ladi.

Kalit so'zlari: *Trigonella foenum-graecum*, DNK, RNK, ATR, Fosfor, tuproq, vitaminlar, fitogormonlar.

Аннотация: В статье представлены результаты изучения условий роста лекарственного растения *Trigonella foenum-graecum* на различных питательных средах. В будущем он послужит важным источником сырья для приготовления натуральных лекарств для медицинской промышленности. Можно будет выращивать в разных регионах нашей республики.

Ключевые слова: *Trigonella foenum-graecum*, ДНК, РНК, АТР, фосфор, почва, витамины, фитогормоны.

Abstract: This article presents the results of the study of the growth conditions of the medicinal plant *Trigonella foenum-graecum* in different nutrient media. It will serve as an important source of raw materials for the preparation of natural medicines for the medical industry in the future. It will be possible to grow in different regions of our republic.

Key words: *Trigonella foenum-graecum*, DNA, RNA, ATR, Phosphorus, soil, vitamins, phytohormones.

Mamlakatni oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlash uchun o'simlik mahsulotlaridan yuqori va sifatlisi hosil olish, tuproq unumdorligini oshirish zarur. Qishloq xo'jaligida hosildorlikni oshirishning muhim shartlaridan biri o'simliklarni fosfor bilan ta'minlash darajasidir.

Fosfor-biosferaning o'ta muhim biogen elementi bo'lib, DNK, RNK, ATR, fosfolipidlari va ba'zi kofaktorlar sifatida makromolekulalar tarkibiga kiradi. Tuproqdagi noorganik fosforining yalpi zahiralari juda katta, ammo u o'simliklar uchun o'zlashtirilib bo'lmaydigan shaklda. Mineral o'g'itlardan olinadigan o'simliklarning moddalardan foydalanish darjasasi juda past, ya'ni: fosfor (*P*)- atigi 15-20%, azot (*N*)- 50% va kaliy (*K*)- 60-70%. Tabiatda fosforining aylanishi bo'limgani uchun va u hosil bilan birga tuproqdan olib chiqib ketiladi, shuning uchun tuproqdagi fosfor yetishmasligi faqat tegishli o'g'itlar kiritilganda tiklanishi mumkin.

Birlamchi minerallar tarkibida neytral yoki ishqoriy tuproqlarda fosfat kuchsiz eriydigan kalsiy fosfat va marganets, kislotali tuproqlarda temir va alyuminiy birikmalar tarkibida uchraydi. Fosfor o'simlik organizmlarida energiya almashinuvida juda muhim rol o'ynaydi.

Qishloq xo'jaligi ekinlarining fosfor bilan oziqlanishini yaxshilashning istiqbolli yo'nalishi tuproq mikroorganizmlari (*bakteriyalar, aktinomitselar, zamburug'lar*) yordamida biologik fosfat mobilizatsiyasi bo'lib, u tuproqdan va o'g'itlardan qiyin eriydigan fosfor birikmalarini yuqori o'simliklar uchun o'zlashtiriladigan shakllarga o'tkazishga yordam beradi.

Fosfat mobilizatsiya qiluvchi mikroorganizmlar- organik va noorganik fosfor birikmalarining erishi qiyin bo'lgan fosfatlarini o'simliklar uchun o'zlashtiriladigan shaklga aylantiradigan, o'simliklarning o'sishi va rivojlanishiga

foydale ta'sir ko'rsatadigan mikroorganizmlar hisoblanadi. Mikroblarning foydali ta'siri, yana shundaki, ular mikroorganizmlarning boshqa foydali guruhlari: nitrifikatorlar va azot fiksatorlarning rivojlanishini faollashtiradi, buning natijasida azotning o'zlashtirilish foizi oshadi. Bu bir nechta sabablarga bog'liq: mikroorganizmlar tomonidan vitaminlar va fitogormonlarning chiqarilishi, ularning patogenlarning rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi antibiotiklar ishlab chiqarilishi, mineral elementlarni o'simliklar uchun o'zlashtiriladigan shaklga o'tishi.

Shunday qilib, rizosferada yashovchi mikroorganizmlar orasida fosfatlarning qiyin eriydigan shakllarini mobilizatsiya qilishga qodir bo'lgan ko'plab bakteriyalar va zamburug'lar ma'lum.

Ular orasida bakteriyalarning quyidagi turlari keng tarqalgan: *Pseudomonas, Bacillus, Rhizobium, Enterobacter, Achromobacter, Agrobacterium, Micrococcus* va boshqalar. Organik fosfor birikmalari parchalash xususiyatiga ega, mikromitset avlodlaridan *Aspergillus, Rhizopus, Trichotecium, Alternaria, drojji Rhodotorula, Saccharomyces, Sandida, Nansenula*.

Shunday qilib, qishloq xo'jaligida fosforli o'g'itlar yetishmasligini hisobga olib, tarkibida fosforining oson eriydigan shakllarini o'z ichiga olgan yuqori samarali bioo'g'itlarni yaratish va metabolitlar sintezini faollashtirish, azotfiksatsiyalovchi, fosfat erituvchi, o'sishni jadallashtiruvchi va fitopatogenlardan himoya qiluvchi mikroorganizmlar ishtirokida tuproqdagi mikrobiologik, biokimyoiy jarayonlarni faollashtirishning yangi usullarini ishlab chiqish zarur.

Tadqiqot ob'yekti. *Trigonella foenum-graecum*, o'simlik ildizlari tomonidan azotning fiksatsiyasiga hissa qo'shadigan alfa-proteobakteriyalar sinfining *Rhodospirillaceae* oilasiga mansub bakteriyalar turiga mansub bo'lgan *Azospirillum*.

1. Mahalliy rizobakteriya shtammlarini ajratish va faol shtammlarni kislota hosil qilish xususiyati bo'yicha skrining qilish. Rizobakteriyalarni ajratib olishda tuproq mikrobiologiyasida umumiyligini qabul qilingan uslublardan foydalaniladi [1]. Rizosfera bakteriyalarini ajratishda Dobireyner Eshbi, GPA, Pikovskoy, Zaka va Men'kina oziqa muhitlaridan foydalaniladi [2-4]. Titrlanuvchi organik kislotalarning umumiyligini miqdorini aniqlashda A.I.Ermakov usulidan foydalaniladi [4]. Glyukoza va *NaCl* qo'shilgan peptonli oziqa muhitiga rizobakteriya kul'turalari ekiladi va 28° C haroratda turg'un o'stiriladi. Oziqa muhitidagi titrlanadigan organik kislotalarning umumiyligini miqdori dinamikada (1,3; 5,7 va 10 kun) tekshiriladi.

2. Fosfat mobilizatsiya qiluvchi rizobakteriya shtammlarini morfo-fiziologik xususiyatlarini o'rganish va MALDI TOF mass-spektrometriya yordamida identifikatsiya qilish. Fosfor va kaliy parchalovchi rizobakteriyalarning faol kul'turalarining kultural-morfologik va fiziologik-biokimyoviy xususiyatlarini umumiyligini qabul qilingan usullar yordamida amalga oshiriladi [5]. Rizobakteriya faol kul'turalarini identifikatsiya qilishda MALDI TOF (MALDI TOF) mass-spektrometriya yordamida aniqlanadi. MALDI (*Matrix Assisted Laser Desorption/Ionization*)-matritsa va lazer nurlari yordamida moddalarning ionlashtirilishi. Bakteriyalarni aniqlash uchun Vitek MS (MALDI-TOF) oqsillar spektorini to'g'ridan-to'g'ri bakteriyalar hujayrasidan uzoq vaqt namuna tayyorlanmasdan aniqlanadi [6].

3. Faol rizobakteriya kulturalarining erishi qiyin bo'lgan tuproq fosfatlaridan *R₂O₅ni* mobilizatsiya qilish xususiyatini o'rganish. Faol rizobakteriya kul'turalarining *Ca₃(PO)₂ni* parchalash xususiyatini aniqlashda N.V.Sergeyeva usulidan foydalaniladi [7-8]. Rizobakteriya kul'turalari *Ca₃(PO)₂* fosfor birikmasi qo'shilgan 100 ml suyuq peptonli oziqa muhitga ekiladi va 30°C haroratda chayqatish uskunasida 200 x/g chayqatilib 8 kun davomida o'stiriladi. Eruvchan fosforining miqdori dinamika bo'yicha (2,4,8 kun) spektrofotometr qurilmasida aniqlanadi.

4. Rizobakteriya shtammlarining nordon fosfataza faolligini aniqlash. Rizobakteriyalar suyuq MPA ozuqa muhitida 3 kun mobaynida 28° C temperaturada o'stiriladi. So'ng bakteriyalar suspenziyasi 6000 x/g da sentrifuga qilinadi. Bakteriyalarning kultural suyuqliklari nordon fosfataza faolligini aniqlash uchun ferment ekstrakti bo'lib xizmat qiladi. Kislotali fosfataza faolligini aniqlash raksion aralashmasi quyidagilardan iborat: 3,0 ml natriy atsetat bufer (500 mM, pH 5,0), 30 mkl para-nitrofenil fosfat (65 mM), 0,1 ml *MgCl₂* (10 mM). Fermentativ reaksiya raksion aralashmaga 1,0 ml ferment ekstrakti qo'shish bilan boshlanadi. Reaksiya aralashmasi 37°Cda 15 daqiqa davomida inkubatsiya qilinadi. Reaksiya 0,5 ml 1 M *NaOH* qo'shib to'xtatildi va hosil bo'lgan p-nitrofenil 405 nm da o'lchandi. Nazorat sifatida ferment qo'shilmagan reaksiyon aralashma xizmat qildi. nordon fosfataza faolligi para-nitrofenolning kalibrlash egri chizig'i orqali aniqlandi [9].

5. Rizobakteriya shtammlarini suyuq oziqa muhitida o'stirish va turli xil temperatura va pH ko'rsatigichining ta'sirini o'rganish. Faol rizobakteriya

kul'turalarining o'sish faolligiga turli xil pH ko'rsatkichlari va haroratning ta'siri o'rganildi. Faol rizobakteriya kul'turalari 5, 7 va 9 pH ko'rsatkichli suyuq peptonli oziqa muhitida 5 kun maboynidagi 28°C haroratda turg'un o'stirildi. Faol rizobakteriya kul'turalari suyuq peptonli oziqa muhitida 5 kun maboynidagi 20°C, 30°C va 45°C haroratda turg'un o'stirildi. Hujayralar titri suyultirish usuli orqali aniqlandi.

6. Statistik tahlillar. Barcha laboratoriya tajribalarini uch takrorda olib boriladi. Olingan natijalarni statistik tahlili St'yudent kriteriyasi asosida o'rtacha arifmetik qiymat, standart

chetlashish, ishonchlilik intervallari aniqlandi. Analiz natijalari MS Excel 2010 va Statistica litsenzion dasturli standart paketlar yordamida hisoblandi. [10].

Tadqiqot ishida asosan *Trigonella foenum-graecum* dorivor o'simligining o'sish sharoitlari laboratoriya usludida 3 xil bakterialar ta'sirida tadqiq qilindi. Natijada quyidagi laboratoriya analizlari natijasida dorivor o'simlikning o'sish dinamikasi aniqlandi. Ozuqa muhitlari tarkibi quyidagicha tashkil etildi.

1-jadval

№	Ozuqa muhiti tarkibi.	Miqdori
1	Kartoshka	400 gr
2	Distillangan suv	4 litr
3	Saxaroza	4gr
4	Glukoza	4gr
5	Kolba	8ta
6	Agar-agar	4,6gr
7	Avtoklav	30 daqqaq



1-rasm. *Trigonella foenum-graecum* dorivor o'simligining 3 xil ozuqa muhitlarida o'sish sharoiti.

2-jadval

Ekilgan urug'lar soni	O'sib chiqqan urug'lar soni	O'sib chiqqan urug'lar soni %	Ildizlar soni	Ildizlar uzunligi sm	Poya uzunligi sm
10 ta	10 ta	100 %	-	3	6,5
		100 %	-	2,8	5
		100 %	-	2,5	4,2
		100 %	-	3	5
		100 %	-	2,5	6,5
		100 %	-	3,5	5,5
		100 %	-	2,2	6
		100 %	-	2,9	7
		100 %	-	3	6,2
		100 %	-	3,5	7,5

Trigonella foenum-graecum dorivor o'simligining 3 xil ozuqa muhitlarida o'stirishda asosan turlich uzunlikdagi ildizlar tendebsiyasi mavjudligi tahlil qilindi. Shuning bilan bir qatorda poya uzunligi esa 5-7 kun

davomida termostatda 27-28° C haroratda aniq o'lchamda aniqlab borildi. Aniq o'lcham asosida hisob kitoblar amalga oshirildi.

3-jadval

Ekilgan urug'lar soni	O'sib chiqqan urug'lar soni	O'sib chiqqan urug'lar soni %	Ildizlar soni	Ildizlar uzunligi sm	Poya uzunligi sm
10 ta	8 ta	80 %	-	2	4,2
		80 %	-	2,5	4
		80 %	-	2,5	5
		80 %	-	1,8	5,2
		80 %	-	2	5,2
		80 %	-	2	4,2
		80 %	-	1,2	5
		80 %	-	0	0,9

4-jadval

Ekilgan urug'lar soni	O'sib chiqqan urug'lar soni	O'sib chiqqan urug'lar soni %	Ildizlar soni	Ildizlar uzunligi sm	Poya uzunligi sm
10 ta	9 ta	90 %	-	4	6,5
		90 %	-	4	5
		90 %	-	3,2	6
		90 %	-	3	6
		90 %	-	4	6,8
		90 %	-	3,5	5
		90 %	-	3	4,5
		90 %	-	3,5	5,5
		90 %	-	2,5	5

Xulosa:

Trigonella foenum-graecum dorivor o'simligi turli xil ozuqa muhitlarida o'sish sharoitlari ijobjiy natijalar hosil qildi. Tibbiyot tarmoqlari uchun kelajakda tabiiy

dori vositalari tayyorlashda muhim xomashyo manbasi bo'lib xizmat qiladi. Respubliamizning turli hududlarida yetishtirish imkoniyati mavjud bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar (Reference List)

1. Zvyaginsev D.G. Metodi pochvennoy mikrobiologii i bioximii. // Moskva, 1991.- 350s.
2. SHilyaeva O.N., YAkovleva Z.M. Rasprostraneniye azospirill v pochvax Sibiri. // Mikrobiologiya.- 1988.- T. 57.- № 2.- S. 284-287.
3. Egorshina A.A., Xayrullin R.M., Luk'yansev M.A., Kuramshina Z.M., Smirnova YU.V. Fosfat-mobilizuyushaya aktivnost' endofitnix shtammov *Bacillus subtilis* i ix vliyaniye na stepen' mikorizatsii korney pshenitsi. // Journal of Siberian Federal University. Biology.- 2, 2011.- № 4.- P. 172-182
4. Ermakov A.I. Metodi bioximicheskix issledovaniy rasteniy. // Leningrad, 1972.- S. 192-194.
5. Paul De Vos, George M.Garrityet el. Bergey's manual of systematic bacteriology.- 2 edition.- VIII.- 2009.
6. Seng P., Rolain J., Fournier P.E., Scola B.L., Drancourt M., Raoult D. MALDI-TOF-mass spectrometry applications in clinical microbiology. // Future Microbioljgy.- 2010.- V. 5.- № 11.- P. 1733–1754.
7. Khujamshukurov, N. A., Abdutolibov, M. Z., Salomova, S. S., Kh, K. D., & Aliqulov, S. M. (2023). ORGANIC PRODUCTION-PROBLEMS AND THEIR SYSTEMIC SOLUTIONS. *Iqlimning davom etayotgan o'zgarishi sharoitida oziq-ovqat xavfsizligiga erishish uchun agrobiologik xilma-xillikni o'rghanish, saqlash va barqaror foydalanish muammolari*, 750-759.
8. Nortoji, X., & Muxriddin, A. (2023). ORGANIK DEHQONCHILIKNI DUNYO MAMLAKATLARI VA RESPUBLIKAMIZDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI. *Science and innovation*, 2(Special Issue 6), 92-97.